ISO 21001 STANDARTI ASOSIDA OLIY TA’LIMDA ICHKI SIFAT AUDITINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Lochinbek Xayotjon o‘g‘li Xomidov*
Osiyo Xalqaro Universiteti, magistratura 1-bosqich talabasi
✉ khomidovlochinbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati menejmenti tizimining tarkibiy qismi sifatida ichki sifat auditining nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. ISO 21001:2018, ISO 19011:2018 standartlari hamda Yevropa oliy ta’lim hududida sifatni ta’minlash standartlari va tavsiyalari (ESG 2015) qiyosiy tahlil qilinib, ichki auditning yetti tamoyili umumlashtirilgan. Maqsadli, normativ, tashkiliy, mazmuniy, protsessual va natijaviy-refleksiv komponentlardan iborat ichki sifat auditining kontseptual tuzilmasi taklif etilgan, uni O’zbekiston oliy ta’lim muassasalari amaliyotiga moslashtirish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar

ta’lim sifati, sifat menejmenti tizimi, ichki audit, ISO 21001, ISO 19011, ESG, oliy ta’lim muassasasi, uzluksiz takomillashtirish.

DOI: 10.5281/zenodo.24423484

KIRISH

Oliy ta'lim sifatini ta'minlash bugungi kunda davlat ta'lim siyosatining ham, har bir oliy ta'lim muassasasi (OTM) strategik boshqaruvining ham markaziy masalalaridan biriga aylandi. Ta'lim xizmatlarining xalqarolashuvi, talabalar va professor-o'qituvchilar akademik mobilligining ortishi, akkreditatsiya va reyting talablarining kuchayishi OTMlardan sifatni faqat tashqi tekshiruvlar orqali emas, balki o'z ichki mexanizmlari yordamida muntazam baholab borishni talab qilmoqda. Ushbu mexanizmlar orasida ichki audit alohida o'rin tutadi: u ta'lim jarayonlarining belgilangan talablarga muvofiqligini dalillar asosida aniqlash, nomuvofiqliklarni erta bosqichda ko'rish va boshqaruv qarorlari uchun ishonchli axborot bazasini shakllantirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bu yo'nalishdagi davlat siyosatining huquqiy asoslari izchil shakllantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni ta'lim sifatini baholash va ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayoniga xalqaro standartlarni joriy etish va kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan qabul qilingan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi ham oliy ta'lim qamrovini kengaytirish bilan birga uning sifatini oshirishni muhim maqsad qilib qo'ygan.

Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda OTMning o'zida faoliyat yurituvchi sifat menejmenti tizimining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda bunday tizimlar uchun ISO 21001:2018 «Ta'lim tashkilotlari. Ta'lim tashkilotlari uchun menejment tizimlari» standarti (ISO, 2018a) hamda menejment tizimlarini auditlash bo'yicha ISO 19011:2018 qo'llanmasi (ISO, 2018b) asosiy tayanch sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda sifatni ta'minlash tadbirlarining rasmiyatchilikka aylanib, akademik hamjamiyat tomonidan ortiqcha byurokratik yuk sifatida qabul qilinishi xavfi ham qayd etiladi (Newton, 2000). Bu holat ichki auditni faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki rivojlantiruvchi mexanizm sifatida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi – ISO 21001:2018 standarti talablari asosida OTMda ichki sifat auditining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va uning kontseptual tuzilmasini ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish

uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: «ta'lim sifati» va «ichki audit» tushunchalarining nazariy talqinlarini tahlil qilish; ichki auditga oid xalqaro standartlarni qiyosiy o'rganish; ichki sifat auditining tamoyillari va tarkibiy komponentlarini ilmiy asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim sifati tushunchasining ko'p ma'noliligi ilmiy adabiyotlarda uzoq vaqtdan beri e'tirof etiladi. L. Harvey va D. Green (1993) sifatning beshta talqinini ajratgan: istisnolilik, mukammallik (barqarorlik), maqsadga muvofiqlik, sarflangan mablag'ga mos qiymat va transformatsiya. Ichki audit nuqtai nazaridan bu tasnif muhim metodologik xulosaga olib keladi: agar sifat faqat «maqsadga muvofiqlik» sifatida tushunilsa, audit hujjat va jarayonlarning belgilangan talablarga mosligini tekshirish bilan cheklanadi; sifat «transformatsiya» sifatida talqin etilganda esa audit ob'ekti talabaning bilim, ko'nikma va kompetensiyalaridagi real o'zgarishlarga qadar kengayadi.

Sifat menejmentining nazariy asosini tashkil etuvchi «Rejalashtir – Bajar – Tekshir – Harakat qil» (PDCA) sikli W. E. Deming (1986) tomonidan boshqaruv amaliyotiga keng tatbiq etilgan. Ushbu siklda ichki audit «Tekshir» bosqichiga to'g'ri keladi va keyingi takomillashtirish harakatlari uchun dalil bazasini yaratadi. M. M. Potashnik (2000) tahriri ostidagi ishda ta'lim sifati maqsad va natija o'rtasidagi nisbat sifatida talqin etilib, sifatni boshqarish natijalarga yo'naltirilgan boshqaruv sifatida qaraladi. Bu yondashuv ichki auditda ta'lim natijalarini rejalashtirilgan maqsadlar bilan solishtirish mezonini asoslaydi.

Sifatni ta'minlash tizimlarining akademik muhitda qabul qilinishi alohida tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi. J. Newton (2000) akademik xodimlarning sifat monitoringiga munosabatini o'rganib, bunday tadbirlar ko'pincha haqiqiy takomillashtirish emas, balki hisobot talablarini qondirish sifatida qabul qilinishini ko'rsatgan. M. Elken va B. Stensaker (2018) rasmiy tizimlar doirasidan tashqarida ham amalga oshiriladigan kundalik sifat amaliyotlarini ifodalovchi «quality work» tushunchasini taklif qilgan. G. W. G. Bendermacher va hammualliflari (2017) sifat madaniyatini realistik sharh asosida tahlil qilib, uning tuzilmaviy-boshqaruv va madaniy-psixologik jihatlari o'zaro bog'liqligini asoslagan. E. Mandefro va hammualliflari (2025) esa sifat madaniyatini shakllantirishda OTM rahbarlarining rolini alohida ta'kidlagan.

M. J. Manatos, C. S. Sarrico va M. J. Rosa (2017) tizimli adabiyotlar sharhida sifat menejmentini OTMning umumiy boshqaruv tizimi bilan integratsiyalash masalasini tahlil qilgan. J. Christopher (2012) Avstraliya davlat universitetlarida ichki auditning boshqaruv nazorati mexanizmi sifatida joriy etilishini universitet rahbarlari nigohidan o'rgangan; bu tadqiqot ichki auditni universitet boshqaruvining (governance) tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish mumkinligini ko'rsatadi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda sifat tashabbuslarining real samarasi masalasi oldingi o'ringa chiqmoqda. C. Bloch va hammualliflari (2021) 2008–2018-yillarda chop etilgan 68 ta nashrni tizimli sharhlab, sifat ishi samarasini baholash uchun bo'ylama (longitudinal) va qat'iyroq miqdoriy tadqiqotlar zarurligini ko'rsatgan. L. Harvey (2022) talabalar qoniqishini o'lchashni reyting tuzish vositasi emas, balki o'qitishni yaxshilash vositasi sifatida qo'llashga da'vat etadi. V. Tsiligiris va C. Hill (2021) ta'lim sifati va talabalar tajribasini muvofiqlashtirish modelini taklif etgan bo'lsa, J. O. Fernandes va B. Singh (2022) OTMlarni akkreditatsiyalash va reytinglash tizimlarini sharhlagan. F. J. Miranda (2025) akkreditatsiya va sifatni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, kelgusi ilmiy izlanishlar yo'nalishlarini belgilagan.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohotlar K. Ruziev va U. Burkhanov (2018) tomonidan mustaqillik yillari kesimida tahlil qilingan. Mahalliy tadqiqotlar orasida X. U. Umarova (2025) oliy ta'lim tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv tizimini rivojlantirishning metodologik jarayonlarini, Z. Y. Bozorov (2026) esa pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki auditning nazariy asoslari xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lsa-da, ISO 21001 talablari va ESG tamoyillarini uyg'unlashtirgan hamda O'zbekiston OTMlari sharoitiga moslashtirilgan ichki sifat auditining yaxlit kontseptual tuzilmasi yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-amaliy xarakterga ega bo'lib, tizimli va jarayonli yondashuvlarga tayanadi. Birinchidan, mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar nazariy tahlil qilindi; manbalar Scopus va Web of Sci-

ence bazalarida indekslangan jurnallar hamda xalqaro tashkilotlar hujjatlaridan tanlab olindi. Ikkinchidan, ISO 21001:2018, ISO 19011:2018 va ESG 2015 hujjatlari ichki auditning maqomi, unga munosabat, tamoyillar, jarayon tuzilishi va asosiy natija mezonlari bo'yicha qiyosiy-normativ tahlil qilindi. Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari kontent-tahlil qilindi.

To'rtinchidan, olingan natijalar asosida ichki sifat auditining kontseptual tuzilmasi modellashtirildi. Beshinchidan, tuzilma komponentlarining xalqaro hujjatlar talablariga muvofiqligi qiyosiy matritsa usulida tekshirildi: har bir komponent ISO 21001:2018 va ISO 19011:2018 standartlarining tegishli bandlari hamda ESG 2015 standartlari bilan solishtirildi. Bu usul tuzilmaning ichki izchilligi va xalqaro talablar bilan uyg'unligini asoslash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Ichki auditga oid xalqaro hujjatlarning qiyosiy tahlili

Qiyosiy-normativ tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan. Tahlil uchun tanlangan uchala hujjat ham ta'lim tashkilotlarida ichki sifat nazoratini tashkil etishda keng qo'llaniladi, biroq ularning maqomi va vazifasi farqlanadi.

1-jadval. Ichki auditga oid xalqaro hujjatlarning qiyosiy tavsifi

Mezon	ISO 21001:2018	ISO 19011:2018	ESG 2015
Hujjat maqomi	Ta'lim tashkilotlari menejment tizimiga qo'yiladigan talablar (sertifikatlash uchun asos)	Menejment tizimlarini auditlash bo'yicha qo'llanma	Yevropa oliy ta'lim hududida sifatni ta'minlash standartlari va tavsiyalari
Ichki auditga munosabati	9.2-band: rejalashtirilgan oraliqlarda ichki audit o'tkazish talabi	Audit dasturini boshqarish va auditni o'tkazish bo'yicha batafsil yo'riqnoma	1-qismdagi ichki sifatni ta'minlashning 10 ta standarti; 1.9-standart: dasturlarni doimiy monitoring qilish va davriy qayta ko'rib chiqish
Tamoyillar	11 ta tamoyil (ta'lim oluvchilarga yo'naltirilganlik, dalillarga asoslangan qarorlar, takomillashtirish va b.)	7 ta audit tamoyili (halollik, xolis taqdim etish, kasbiy ehtiyotkorlik, maxfiylik, mustaqillik, dalillarga va xavf-xatarga asoslanganlik)	Talabaga yo'naltirilganlik, manfaatdor tomonlar ishtiroki, sifat madaniyati
Jarayon tuzilishi	Jarayonli yondashuv va PDCA sikli	Auditni boshlash, tayyorlash, o'tkazish, hisobot, yakunlash, keyingi kuzatuv	Ichki va tashqi sifatni ta'minlashning siklik tizimi
Asosiy natija	Nomuvofiqliklar, tuzatuvchi harakatlar, rahbariyat tahlili uchun kirish ma'lumotlari	Audit xulosalari va hisoboti	Dasturlarni takomillashtirish, jamoatchilikka axborot berish

Tahlil ko'rsatadiki, uchala hujjat bir-birini to'ldiradi. ISO 21001 ichki audit o'tkazish majburiyatini va uning menejment tizimidagi o'rnini belgilaydi, ISO 19011 auditni qanday tashkil etish va o'tkazish metodikasini beradi, ESG esa audit ob'ektlarining akademik mazmunini – ta'lim dasturlarini loyihalash, o'qitish va baholash, talabalar qabuli va o'zlashtirishi, o'quv resurslari hamda axborotni boshqarishni aniqlashtiradi (ENQA et al., 2015). Demak, OTMda ichki sifat auditini bitta hujjat asosida qurish yetarli emas: menejment tizimi talablari, audit metodikasi va akademik mazmun integratsiyasi talab etiladi.

2. Ichki sifat auditining tamoyillari

Qiyosiy tahlil asosida OTMda ichki sifat auditining yetti tamoyili umumlashtirildi (2-jadval). Ular ISO 19011 dagi audit tamoyillarini ISO 21001 va ESG ning ta'limga xos talablari bilan uyg'unlashtiradi.

2-jadval. OTMda ichki sifat auditining tamoyillari

Tamoyil	Mazmuni	Asos
Dalillarga asoslanganlik	Audit xulosalari tekshirilishi va qayta tiklanishi mumkin bo'lgan dalillarga tayanadi	ISO 19011; ISO 21001
Xavf-xatarga asoslanganlik	Audit resurslari ta'lim sifatiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlarga yo'naltiriladi	ISO 19011
Mustaqillik va xolislik	Auditor o'z faoliyatini tekshirmaydi, manfaatlar to'qnashuvi istisno etiladi	ISO 19011
Ta'lim oluvchiga yo'naltirilganlik	Audit mezonlari talabaning ta'lim natijalari va tajribasidan kelib chiqadi	ISO 21001; ESG 1.3
Manfaatdor tomonlar ishtiroki	Talabalar, ish beruvchilar va professor-o'qituvchilar audit jarayoniga jalb etiladi	ISO 21001; ESG
Uzluksiz takomillashtirish	Audit natijalari tuzatuvchi harakatlar orqali PDCA siklini yakunlaydi	ISO 21001; Deming (1986)
Maxfiylik va shaffoflik muvozanati	Shaxsga doir ma'lumotlar himoyalanadi, umumlashtirilgan natijalar ochiq e'lon qilinadi	ISO 19011; ISO 21001; ESG 1.8

Ushbu tamoyillar orasida xavf-xatarga asoslanganlik O'zbekiston OTMlari uchun alohida ahamiyatga ega. Cheklangan kadr va vaqt resurslari sharoitida barcha jarayonlarni bir xil chuqurlikda tekshirish amalda qiyin; shu bois audit dasturi talabalar o'zlashtirishi, baholash xolisligi va bitiruvchilar bandligi kabi yuqori ta'sirli yo'nalishlarga ustuvorlik berishi maqsadga muvofiq. Ta'lim oluvchiga yo'naltirilganlik tamoyili esa auditni hujjatlar muvofiqligi bilan cheklamay, L. Harvey va D. Green (1993) ta'riflagan transformatsion sifat talqiniga yaqinlashtiradi.

3. Ichki sifat auditining kontseptual tuzilmasi

Nazariy tahlil va tamoyillar asosida ichki sifat auditining olti komponentdan iborat kontseptual tuzilmasi ishlab chiqildi (3-jadval). Komponentlar o'zaro bog'liq bo'lib, birining yetishmasligi butun tizim samaradorligini pasaytiradi.

3-jadval. OTMda ichki sifat auditining kontseptual tuzilmasi

Komponent	Mazmuni
Maqsadli	Ta'lim sifatini ta'minlash va takomillashtirish uchun ishonchli dalillar bazasini yaratish
Normativ	O'RQ-637-son Qonun, PF-5847-son Farmon, ISO 21001:2018, ISO 19011:2018, ESG 2015, OTM ichki nizomlari
Tashkiliy	Sifat menejmenti bo'limi, o'qitilgan ichki auditorlar guruhi, yillik audit dasturi, talabalar va ish beruvchilar vakillari
Mazmuniy	Audit ob'ektlari: ta'lim dasturlari, o'qitish va baholash, talabalar o'zlashtirishi, professor-o'qituvchilar salohiyati, o'quv resurslari, axborot tizimlari
Protsessual	Rejalashtirish – tayyorgarlik – o'tkazish – hisobot – tuzatuvchi harakatlar – keyingi kuzatuv
Natijaviy-refleksiv	Rahbariyat tahlili, takomillashtirish rejasi, samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi

Mazmuniy komponent ESG ning 1.2–1.7-standartlariga tayanadi va auditni o'quv jarayonining asosiy bosqichlari bo'yicha tizimlashtiradi. Protsessual komponent ISO 19011 da belgilangan audit bosqichlarini takrorlaydi, biroq unga ta'lim muassasasiga xos element – tuzatuvchi harakatlar natijasini keyingi o'quv yilida qayta tekshirish bosqichi qo'shiladi. Natijaviy-refleksiv komponent auditni rahbariyat tahlili bilan bog'lab, PDCA siklini yopadi va audit natijalarining boshqaruv qarorlariga aylanishini ta'minlaydi.

4. Kontseptual tuzilmaning xalqaro talablarga muvofiqligi

Taklif etilgan tuzilmaning asoslanganligini tekshirish maqsadida uning har bir komponenti xalqaro hujjatlarning tegishli bandlari bilan solishtirildi (4-jadval). Matritsa tuzilmaning birorta komponenti xalqaro talablardan uzilib qolmaganini va, aksincha, standartlarning ichki auditga oid asosiy talablari tuzilmada o'z aksini topganini ko'rsatadi.

4-jadval. Kontseptual tuzilma komponentlarining xalqaro hujjatlar bilan muvofiqligi

Komponent	ISO 21001:2018	ISO 19011:2018	ESG 2015
Maqsadli	5.2 (siyosat), 6.2 (maqsadlar va ularga erishishni rejalashtirish)	5.2 (audit dasturi maqsadlarini belgilash)	1.1

Komponent	ISO 21001:2018	ISO 19011:2018	ESG 2015
Normativ	4.1–4.3 (tashkilot konteksti, manfaatdor tomonlar, qamrov)	5.4 (audit dasturini belgilash)	1.1
Tashkiliy	5.3 (rollar va mas'uliyat), 7.2 (kompetentlik)	7 (auditorlar kompetentligi va ularni baholash)	1.1, 1.5
Mazmuniy	8 (operatsion faoliyat)	6.4 (audit faoliyatini o'tkazish)	1.2–1.7
Protsessual	9.2 (ichki audit)	6.2–6.7 (auditni boshlashdan keyingi kuzatuvgacha)	1.9
Natijaviy-refleksiv	9.3 (rahbariyat tahlili), 10.2 (nomuvofiqlik va tuzatuvchi harakatlar)	5.6–5.7 (audit dasturini monitoring qilish va takomillashtirish)	1.9, 1.10

Matritsadan ko'rinadiki, protsessual komponent asosan ISO 19011 ga, mazmuniy komponent esa ESG ga tayanadi, natijaviy-refleksiv komponent esa ISO 21001 ning rahbariyat tahlili va tuzatuvchi harakatlar talablari orqali PDCA siklini yopadi. Tashkiliy komponentda ikki standartning kompetentlikka oid talablari birlashadi: ISO 21001 xodimlar kompetentligini umumiy tarzda talab qilsa, ISO 19011 ichki auditorlarning bilim va ko'nikmalariga alohida talablar qo'yadi. Bu OTMlarda ichki auditorlarni maxsus tayyorlash zarurligini asoslaydi.

Olingan natijalarni xalqaro tadqiqotlar bilan qiyoslash muhim xulosalarga olib keladi. J. Newton (2000) qayd etgan rasmiyatchilik xavfini kamaytirish uchun ichki audit jazolovchi emas, rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi, uning natijalari esa professor-o'qituvchilar bilan muhokama qilinishi lozim. G. W. G. Bendermacher va hammualliflari (2017) ta'kidlaganidek, sifat madaniyati faqat tuzilmalar va tartiblar bilan emas, balki qadriyatlar va o'zaro ishonch bilan shakllanadi; shu bois tashkiliy komponentda talabalar va ish beruvchilarning ishtiroki muhim o'rin tutadi. C. Bloch va hammualliflari (2021) ta'kidlagan sifat ishi samarasini qat'iy o'lchash zarurati esa natijaviy-refleksiv komponentda samaradorlik ko'rsatkichlarini oldindan belgilash zarurligini asoslaydi.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud: taklif etilgan tuzilma nazariy jihatdan asoslangan va xalqaro hujjatlar bilan muvofiqligi tekshirilgan, biroq uning OTM amaliyotidagi samaradorligi alohida empirik tadqiqotni talab etadi. Bu masalalar dissertatsiya doirasidagi keyingi maqolalarda – ichki audit amaliyotining joriy holatini tahlil qilish va raqamli monitoringga asoslangan takomillashtirish modelini ishlab chiqish orqali ko'rib chiqiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, ichki sifat auditining mazmuni ta'lim sifatining qaysi talqiniga tayanishiga bog'liq: sifat transformatsiya sifatida tushunilganda audit ob'ekti hujjatlar muvofiqligidan talabaning ta'lim natijalarigacha kengayadi. Ikkinchidan, ISO 21001:2018, ISO 19011:2018 va ESG 2015 hujjatlari o'zaro to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lib, ular mos ravishda menejment tizimi talablari, audit metodikasi va akademik mazmunni ta'minlaydi. Uchinchidan, OTMda ichki sifat auditi yetti tamoyilga – dalillarga va xavf-xatarga asoslanganlik, mustaqillik, ta'lim oluvchiga yo'naltirilganlik, manfaatdor tomonlar ishtiroki, uzluksiz takomillashtirish hamda maxfiylik va shaffoflik muvozanatiga tayanishi lozim. To'rtinchidan, maqsadli, normativ, tashkiliy, mazmuniy, protsessual va natijaviy-refleksiv komponentlardan iborat kontseptual tuzilma ichki auditni yaxlit tizim sifatida loyihalash imkonini beradi.

Amaliyot uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi: OTMlarda ichki sifat auditi to'g'risidagi nizomni ISO 21001:2018 va ISO 19011:2018 talablariga muvofiq ishlab chiqish; ichki auditorlarni ISO 19011 da belgilangan kompetensiyalar asosida tayyorlash va malakasini muntazam oshirish; yillik audit dasturini xavf-xatarga asoslangan holda rejalashtirish; audit guruhlariga talabalar va ish beruvchilar vakillarini jalb etish; audit natijalari va tuzatuvchi harakatlar ijrosini OTMning elektron axborot tizimi orqali kuzatib borish. Ushbu takliflarni amalga oshirish ichki auditni rasmiy nazorat tadbiridan ta'lim sifatini uzluksiz takomillashtirish vositasiga aylantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmon. https://lex.uz/docs/-4545884

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmon. https://lex.uz/docs/-5841063

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida: 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon. https://lex.uz/docs/-6600413

5. Bendermacher, G. W. G., oude Egbrink, M. G. A., Wolfhagen, I. H. A. P., & Dolmans, D. H. J. M. (2017).

Unravelling quality culture in higher education: A realist review. Higher Education, 73(1), 39–60. https://doi.org/10.1007/s10734-015-9979-2

6. Bloch, C., Degn, L., Nygaard, S., & Haase, S. (2021). Does quality work work? A systematic review of academic literature on quality initiatives in higher education. Assessment & Evaluation in Higher Education, 46(5), 701–718. https://doi.org/10.1080/02602938.2020.1813250

7. Bozorov, Z. Y. (2026). Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish [Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 13.00.07 – Ta'limda menejment]. Termiz davlat pedagogika instituti. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10012852/axbrzu0GTWqkeKx.pdf

8. Christopher, J. (2012). The adoption of internal audit as a governance control mechanism in Australian public universities – views from the CEOs. Journal of Higher Education Policy and Management, 34(5), 529–541. https://doi.org/10.1080/1360080X.2012.716001

9. Deming, W. E. (1986). Out of the crisis. MIT Center for Advanced Engineering Study.

10. Elken, M., & Stensaker, B. (2018). Conceptualising 'quality work' in higher education. Quality in Higher Education, 24(3), 189–202. https://doi.org/10.1080/13538322.2018.1554782

11. ENQA, ESU, EUA, & EURASHE. (2015). Standards and guidelines for quality assurance in the European Higher Education Area (ESG). Brussels, Belgium.

12. Fernandes, J. O., & Singh, B. (2022). Accreditation and ranking of higher education institutions (HEIs): Review, observations and recommendations for the Indian higher education system. The TQM Journal, 34(5), 1013–1038. https://doi.org/10.1108/TQM-04-2021-0115

13. Harvey, L. (2022). Back to basics for student satisfaction: Improving learning rather than constructing fatuous rankings. Quality in Higher Education, 28(3), 265–270. https://doi.org/10.1080/13538322.2022.2050477

14. Harvey, L., & Green, D. (1993). Defining quality. Assessment & Evaluation in Higher Education, 18(1), 9–34. https://doi.org/10.1080/0260293930180102

15. International Organization for Standardization. (2018a). Educational organizations — Management systems for educational organizations — Requirements with guidance for use (ISO Standard No. 21001:2018). ISO.

16. International Organization for Standardization. (2018b). Guidelines for auditing management systems (ISO Standard No. 19011:2018). ISO.

17. Manatos, M. J., Sarrico, C. S., & Rosa, M. J. (2017). The integration of quality management in higher education institutions: A systematic literature review. Total Quality Management & Business Excellence, 28(1–2), 159–175. https://doi.org/10.1080/14783363.2015.1050180

18. Mandefro, E., Semela, T., & Bezabih, A. (2025). Unravelling the leadership role of higher education leaders in quality imperatives: Implications for quality culture development. Higher Education Quarterly, 79(4), e70072. https://doi.org/10.1111/hequ.70072

19. Miranda, F. J. (2025). Accreditation and quality assurance in higher education institutions: A systematic literature review and a research agenda. Quality in Higher Education, 31(3), 304–320. https://doi.org/10.1080/13538322.2025.2553983

20. Newton, J. (2000). Feeding the beast or improving quality? Academics' perceptions of quality assurance and quality monitoring. Quality in Higher Education, 6(2), 153–163. https://doi.org/10.1080/713692740

21. Ruziev, K., & Burkhanov, U. (2018). Uzbekistan: Higher education reforms and the changing landscape since independence. In J. Huisman, A. Smolentseva, & I. Froumin (Eds.), 25 years of transformations of higher education systems in post-Soviet countries (pp. 435–459). Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1007/978-3-319-52980-6_17

22. Tsiligiris, V., & Hill, C. (2021). A prospective model for aligning educational quality and student experience in international higher education. Studies in Higher Education, 46(2), 228–244. https://doi.org/10.1080/03075079.2019.1628203

23. Umarova, X. U. (2025). Oliy ta'lim tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv tizimini rivojlantirishning metodologik jarayonlari [Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, 13.00.07 – Ta'limda menejment]. Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti.

24. Поташник, М. М. (Ред.). (2000). Управление качеством образования: Практикоориентированная монография и методическое пособие. Педагогическое общество России.